

This is not registered version of Total Doc Converter. Avvalgi natijaga qaytib kelishingizni ko'rib o'talmanmi? Bu his qilmay turib qoldim.

Churr!!! Hushtak yana qattiq chirillaganida hushimga kelib atrofga alangBladim. Tevaragimda mashinalar "shuv-shuv" o'tar, haydovchilar menga norozi baqrayardilar.

Churr!

Endi hushtak chalayotgan kishini ko'rdim. U yo'l chetida turar, qo'lga qizil latta bog'lab olgan havaskor drujinachi ekan. Menga shaxt bilan "qayt, qayt" ishorasini qilardi. Noiloj yo'l o'rtasidan izimga qaytdim.

Joningizdan umidingiz bormi? qulog'im ostiga kelib shang'illadi u. NevBchun yo'l berk vaqtida kesasiz ko'chani?!

Kun ancha salqin bo'lishiga qaramay uning manglayida reza-reza ter, ertalabdan baqirsa kerak, ovozi bo'g'ilayozgan edi.

U javob kutmay tag'in bir to'da e'tirozlarini bidirlab tashladi. Chamasi mening javobim yoki o'zimni qanday oqlashim uning uchun ahamiyatsiz edi. Uning uchun o'zi va qilayotgan ishi muhim edi. Men esa o'ng'aysizlanib boshqa yoqqa qaradim.

Siz, siz ne yoqqa borasiz?! xirilladi endi o'sha ovoz allaqachon ancha uzoqda.

Qaradim. Semizlikdan pishillab zo'rg'a yurib kelayotgan xotinni drujinachi qorniga deyarlik turtib to'xtatdi.

Qarang! Siz uchun yo'l yopiq-ku!

Xotin unga hech narsa demadi, orqasiga ham qaytmadi. O'sha drujinachi sabab yashil chiroq yonishini majbur kutayotgan yo'lovchilar yigitning nega buncha yonib kuyayotganligini tushunmay, ba'zilari esa asabiylashib kiftlarini qisib qo'yishardi.

Chur! Churr!

Endi drujinachi yo'lning nariyog'idagi o'tish qoidasini buzayotganlar tomonga ola tayog'ini vajohat bilan silkitib yugura ketdi.

Qayting, qayting, qayting axir orqaga!

Shunda yonimda turgan yo'lovchilarning biri to'ng'illadi.

Kallasi joyida emasga o'xshaydi bu bechoraning!

Ahmoq! dedi boyagi semiz, yuzi rapidaday xotin. U ham yashil chiroq yonishini kutayotganlar safiga qo'shilgan edi. Qip-qizil ahmoq!

Yonimizda turganlardan biri yashil chiroq yonishini kutishga sabri chidamay yo'lni kesib o'ta boshlagan edi, "Ahmoq" biz tomonga yugurdi. Churr!!!

To'xtang, qayting!

Mashinalar shovqini uning ovozini ko'mib ketdi. Shu payt qaysidir mashina qattiq tormoz berdi: "g'iyqqq!!!" "Ahmoq" chap beraman degan edi boshidagi

do'ppisi uchib ketdi. Tormoz bergan mashinaning shofyori barzangi yigit tusha solib "Ahmoq"ning jag'iga musht tushirdi:

O'lging keldimi?!!

"Ahmoq"ning ikki qo'li jag'ida, ko'zi yonida tirjayib turgan qoidabuzarda edi. Barzangi shartta mashinasiga o'tirdi-da, jo'nab qoldi.

"Ahmoq" esa qoidabuzarni chetga unday boshladi. U ko'nmedi. Ikkovi, "sen ne deysan, men ne deyman" deb, yo'l o'rtasida

tiralishib qoldilar. Ular bir-birlarini turtishar, itarishar, biri-biridan qattiqroq baqirishga harakat qilishardi. Mashinalar esa

yonverlaridan "g'ir-g'ir" o'tishardi. Endi qoidabuzar bilan "Ahmoq" o'rta yo'lda rasmanasiga tatalashardilar. Ne bo'ldi-yu

qoidabuzar "Ahmoq"ning ko'krigidan itarib yubordi. Mashinalar ketma-ket qattiq tormoz bera boshladilar. Qoidabuzar

chaqchayganicha kotib qoldi.

Mashina bosib ketgandi chorrahadagi "Ahmoq" odamni!

O'tgan asrning 90-yillari